

Globallashuv sharoitida an'anaviy hunarmandchilik va tarixiy merosni saqlash muammolari

TDSHU dotsenti, PhD Bobir Odilov

Annotatsiya: Mazkur maqolada globallashuv jarayonlari sharoitida an'anaviy hunarmandchilik, xususan kulolchilik sohasida yuzaga kelayotgan muammolar, tarixiy merosni saqlash va rivojlantirish zarurati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Kulolchilikning qadimiy taraqqiyot bosqichlari, sirlash texnologiyasining shakllanishi, hududiy maktablar rivoji hamda ustoz–shogird tizimining nomoddiy madaniy meros sifatidagi o'rnini yoritiladi. Shuningdek, an'anaviy ishlab chiqarish tajribalarini zamonaviy sharoitda saqlash, etnoturizmni rivojlantirish, hamda kulolchilik namunalarini raqamli texnologiyalar, jumladan 3D modellashtirish orqali hujjatlashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Maqolada milliy madaniy merosni asrash va uni zamonaviy ta'lim hamda madaniy jarayonlarga integratsiya qilish dolzarb vazifa sifatida asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: globallashuv, an'anaviy hunarmandchilik, kulolchilik, madaniy meros, nomoddiy madaniy meros, sirlash texnologiyasi, kulolchilik maktablari, ustoz–shogird tizimi, koshinchilik, etnoturizm, raqamli hujjatlashtirish, 3D modellashtirish, tarixiy rekonstruksiya, madaniy qadriyatlar.

Globallashuv jarayoni, iqlim o'zgarishi va ilm-fan hamda sanoatdagi yangilanishlar ta'sirida o'zbek xalqi tomonidan rivojlantirib kelinayotgan an'anaviy hunarmandchilikning ko'plab tarmoqlari yo'q bo'lib bormoqda yoki o'zgarib ketmoqda. Bunday jarayonni insoniyatning kashfiyotlari natijasi sifatida baholasakda biroq, salbiy jihatlarni ham o'ylab ko'rishimiz maqsadga muvofiq xisoblanadi. Xususan, hunarmandchilik maxsulotlarining suniylashuvi, madaniy merosni yo'qolib ketishi shular jumlasidandir. Ushbu jarayonlar xalqning tarixiy davrlardan bugungi kungacha saqlab rivojlantirib kelayotgan qadriyatlarini tushunish, saqlash va rivojlantirishni talab etadi. Bu jarayonni YUNESCO tashkilotining nomoddiy madaniy merosni saqlash va rivojlantirishga qaratilgan chora tadbirlari bilan ham dolzarb deb baholash mumkin.

Mazkur ma'ruzada O'zbekistonning ko'p yillik tarixi va tajribasini tushunish imkonini beruvchi hunarmandchilik tarmoqlaridan biri kulolchilik misolida madaniy merosni saqlash, rivojlantirish va ta'lim jarayoniga jalb etish bo'yicha mulohazalarni ilgari suradi.

Dastavval qayd etish lozimki, Markaziy Osiyo, xususan O'zbekiston hududi iqlim sharoitining nisbatan quruq bo'lishi hamda axoli manzillarida tog' zonalarining kamligi sababli qadimdan loydan bino qurish an'anasi shakllangan. Loy va sinch asosida turar joylar barpo etish tajribasi tarixan rivojlanib, keyingi davrlarda ham aholining aksariyat qismi tomonidan nisbatan kam xarajatli bo'lgan ushbu qurilish usullaridan foydalanib kelinishini ta'minlagan. Bunday binolar nafaqat qurilish jihatidan qulay, balki bezash va unda istiqomat qilish uchun ham mos bo'lgan.

Aytish joizki, mazkur holat qadimgi davrlarda insonlarning dastlab tabiiy g'orlarda yashab, keyinchalik dehqonchilik uchun qulay bo'lgan pasttekislik hududlarga ko'chib o'tishi va bu yerda muqim manzillar barpo etishi jarayoni bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu qadimiy manzillarning bugungi kunda arxeologlar tomonidan aniqlanib o'rganilgan qismi nisbatan kam ma'lumot beradi. Buning asosiy sababi turar joylarning asosan loydan qurilganligi bo'lib, vaqt o'tishi bilan bunday inshootlarning katta qismi yemirilgan va saqlanib qolmagan.

Shu bilan birga, mazkur turar joylardan topilgan va hozirgi kungacha yetib kelgan moddiy madaniyat namunalari orasida kulolchilik buyumlari alohida o'rin tutadi. Chunki sopol idishlar Neolit davridan boshlab kulolchilik dastgohi yordamida tayyorlanib, texnologik jihatdan takomillashgan, bezaklari mustahkamlangan hamda olovda pishirilishi natijasida pishiq, suv ta'siriga chidamli holga keltirilgan. Bir so'z bilan aytganda, sopol buyumlar qadimgi jamiyat hayoti va madaniyati haqida muhim tarixiy ma'lumot beruvchi asosiy manbalardan biri hisoblanadi.

Shunday qilib kulolchilik tarixi va taraqqiyotini ilmiy jihatdan tushunish nafaqat O'zbekiston balki, Markaziy Osiyo o'troq axoli hayotini tarixiy rekonstruksiya qilish uchun muhim jarayondir.

Markaziy Osiyoda kulolchilik Neolit davridan boshlab izchil ravishda taraqqiy etib kelganligini tasdiqlovchi ko'plab arxeologik dalillar mavjud. Xususan, Joytun, Hisor va Jonbosqal'a manzilgohlaridan aniqlangan qo'lda, nisbatan sodda shakllarda tayyorlangan sopol idishlar mazkur davr kulolchilik an'alarining dastlabki namunalarini tashkil etadi. Ushbu buyumlar texnologik jihatdan sodda bo'lishiga

qaramay, aholi xo'jalik faoliyati va kundalik ehtiyojlarini ta'minlashda muhim o'rin tutgan.

Eneolit va Bronza davrlariga kelib esa mintaqada kulolchilikning yangi bosqichi kuzatilib, kulolchilik dastgohi yordamida tayyorlangan, shaklan bejirim va sifat jihatidan mukammal sopol idishlar keng tarqala boshladi. Bu jarayon hunarmandchilikning ixtisoslashuvi va ishlab chiqarish texnologiyalarining takomillashuvi bilan bog'liq bo'lib, idishlarning shakli, o'lchami va vazifaviy xilma-xilligini oshirdi.

Miloddan avvalgi IIV asrdan milodiy I asrgacha bo'lgan davrda esa sopol buyumlarning shakl va bezaklarida muhim o'zgarishlar yuz berdi. Xususan Ahamoniylar, ellin va budda dini madaniyatining ta'siri yaqqol sezila boshlaydi. Natijada idishlarning funksional doirasi kengayib, ular nafaqat xo'jalik va mahsulotlarni saqlash maqsadida, balki estetik-bezak, shuningdek diniy tamoyillar ado etish vazifasini bajaruvchi buyumlar sifatida ham qo'llanila boshladi.

Milodiy VIII asrga kelib kulolchilikda sirlash texnologiyasining joriy etilishi ushbu soha taraqqiyotida muhim burilish nuqtasini yuzaga keltirdi. Bu borada So'g'd madaniyatiga oid kulolchilik mahsulotlari ilmiy jihatdan yetarlicha o'rganilgan bo'lib, ular rang-barangligi, texnologik mukammalligi hamda yuksak badiiy bezaklari bilan ajralib turadi. Aynan shu davrda sopol idishlarni sirlash texnologiyasining amaliyotga joriy etilishi kulolchilik mahsulotlarining sifat va estetik qiymatini sezilarli darajada oshirdi.

Shu o'rinda sirlash texnologiyasining mohiyatiga qisqacha to'xtalib o'tish joiz. Mazkur jarayon sopol buyumlarning nafis ko'rinishini ta'minlash bilan bir qatorda, ularning mustahkamligi va tashqi ta'sirlarga chidamliligini oshirishga xizmat qilgan. Xususan, sopol idishlar tarkibida tabiiy o'simliklar kulidan tayyorlangan maxsus suyuqlikka botirilib, so'ngra yuqori haroratda pishirilgan. Natijada idish yuzasida o'ziga xos himoya va bezak vazifasini bajaruvchi sir qatlam hosil bo'lib, bu holat kulolchilik san'atining yangi bosqichga ko'tarilganidan dalolat beradi.

Kulolchilikda vujudga kelgan sirlash texnologiyasi X asrlardan boshlab hozirgi kungacha saqlanib qolgan o'ziga xos kulolchilik maktablarining shakllanishiga zamin yaratdi. Sir, naqsh va ranglar mazkur kulolchilik maktablarining asosiy farqlovchi jihatlarini belgilab beruvchi muhim omillar sifatida namoyon bo'lib kelmoqda. Ushbu texnologik va badiiy unsurlar hududlararo uslubiy tafovutlarni yuzaga keltirib,



kulolchilik san'atining boy va rang-barang an'analarini shakllantirdi. Bu borada Islom dini tamoyillarini ta'siri ham kulolchilikda yaqqol aks etdi.

O'rta asrlarda kulolchilik sohasi jadal rivojlanib, uning mahsulotlari nafaqat maishiy ehtiyojlarda, balki me'moriy inshootlarni bezashda ham keng qo'llanila boshladi. Xususan, Samarqand, Buxoro, Xiva va Qo'qon shaharlarida qad ko'targan tarixiy obidalar kulolchilikning maxsus yo'nalishi hisoblangan koshinchilik tarmog'ining rivojlanishiga kuchli turtki berdi. Koshinchilik san'ati texnologik murakkabligi, og'ir mehnat va katta moddiy xarajatlarni talab qilganligi bois, asosan yirik me'moriy inshootlar — masjid, madrasa, maqbara va saroylarni bezashda qo'llanilgan.

Shunday qilib, vaqt o'tishi bilan mohir kulollar kosagar, humpaz, tandirchi va koshinpaz kabi yo'nalishlarga ixtisoslashdi. Ular yashab ijod qilgan tabiiy-geografik muhit, iqlim sharoiti hamda xo'jalik mashg'ulotlarining o'ziga xos xususiyatlari ta'sirida boy amaliy tajriba to'pladilar. Mazkur bilim va ko'nikmalar avloddan avlodga, ustozdan shogirdga uzluksiz tarzda o'tkazilib, hunarmandchilik an'analarining barqaror saqlanib qolishini ta'minladi.

Natijada mintaqada mukammal va samarali "usta-shogird" tizimi qaror topdi. Har bir usta sopol buyumlarga ishlov berishda o'ziga xos texnika va uslublarga ega bo'lib, ushbu sir-asrnlarni uzoq yillar davom etgan amaliy tayyorgarlik va o'quv jarayoni asosida shogirdlariga puxta tarzda o'rgatib kelgan. Bu holat kulolchilik san'atining uzluksiz rivoji va hududiy maktablarning shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qilgan.

Ushbu ma'ruzaning mohiyatiga qaytib ta'kidlash mumkinki, kulolchilikka oid tajriba va bilimlarning uzoq tarixiy taraqqiyot davomida avloddan avlodga o'tib, o'rganilib va takomillashib borishi muayyan xalqning nomoddiy madaniy merosi sifatida shakllangan bilimlar tizimini anglash imkonini beradi. Mazkur qadriyatlar tizimi usta va shogird o'rtasida o'ziga xos ijtimoiy, axloqiy va kasbiy munosabatlarning vujudga kelishiga xizmat qilgan hamda hunarmandchilik faoliyatini tartibga soluvchi maxsus qoidalarning ishlab chiqilishiga sabab bo'lgan.

Xususan, o'rta asrlarda shakllangan usta va shogird an'analari maxsus risolalarda bayon etilgan bo'lib, ularda hunar o'rganish jarayoni, kasbiy mas'uliyat, ustozga hurmat va axloqiy me'yorlar aniq belgilab qo'yilgan. Mazkur risolalar bugungi kungacha tarixiy-manbaviy ahamiyatga ega hujjatlar sifatida saqlanib kelmoqda hamda



an'anaviy kulolchilik va umuman hunarmandchilik madaniyatini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Shu o'rinda qayd etish lozim bo'lgan ma'lumot shuki, men jamoam bilan birgalikda 8 yildan buyon yuqorida qayd etilganidek, tarixiy va madaniy qiymatga ega nomoddiy madaniy meros, bir so'z bilan aytganda an'anaviy ishlab chiqarishni bugungi kun uchun zaruriy qismlarini tiklash, saqlash va ushbu sohani rivojlantirish uchun targ'ib qilish ishlari bilan shugullanib kelmoqdaman.

Xususan, an'anaviy xo'jalikning dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik tarmoqlarida bugungi kun uchun dolzarb bo'lgan qadriyatlarni o'rganish, ularni amaliy jihatdan asrash va rivojlantirish choralaridan biri sifatida etnoturizm sohasini rivojlantirish, shuningdek, mazkur jarayonlarni 3D formatda raqamli shaklda hujjatlashtirish va saqlashga qaratilgan tadqiqotlarimiz ushbu yo'nalishdagi amaliy ishlar sirasiga kiradi. Shuningdek, hozirgi kunda O'zbekistondagi kulolchilik sohasini antropologik nuqtai nazardan tadqiq etish hamda texnologik jihatdan jadal o'zgarib borayotgan zamon sharoitida mavjud kulolchilik maktablariga xos ish namunalarini 3D modellash tirish ishlari olib borilmoqda. Mazkur yondashuv orqali xalq madaniyatining muhim unsurlarini qisman bo'lsa-da tiklash, ularni ilmiy asosda hujjatlashtirish va kelajak avlodlarga yetkazish asosiy maqsad qilib olingan. Zero, an'anaviy hunarmandchilikni zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida saqlash va ommalashtirish milliy madaniy merosning uzluksizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.